

Qipchaqova Yorqinoy Hamidjonovna
FarDU, Ijtimoiy- gumanitar fanlar kafedrası o'qituvchisi

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARIDAGI KASBIY QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya: Yurtimizda ta'lim tizimida bo'layotgan o'zgarishlarda o'qituvchilarga bo'layotgan e'tibor darajasi va ulardan talab qilinayotgan kasbiy mahoratları haqida so'z yuritiladi. Bundan tashqari ta'lim sohasida o'z faoliyatini yo'lga qo'ymoqchi bo'lgan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy mahorat qanday bo'lishi kerakligi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Ta'lim, tarbiya, qobiliyatlar, pedagogik mahorat, yosh xususiyatlari, kasbiy bilim, kasbiy mahorat, bo'lajak pedagog faoliyati.

Hozirgi zamon ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchilarning o'rni beqiyosdir. Ta'lim-tarbiya berishda o'qituvchi o'z dars o'tish mahoratiga ega bo'lishi lozim. Bir necha yil oldingi ta'lim tizimi bilan hozirgi zamon ta'lim tizimini solishtiradigan bòlsak, órtasidagi farqni sezamiz. Yurtimiz ta'limida bo'layotgan ózgarishlar faqatgina ta'lim tizimiga ta'sir qilmaydi, balki o'qituvchining kasbiy mahoratiga ham sezilarli darajada ta'sir ótkazadi. Ya'ni ta'lim tizimida bo'layotgan yangiliklar, ta'lim texnologiyalarining kundan kunga rivojlanishi va darsliklarning yangicha kòrinishda ózgarishi bo'lajak va davomiy ishlab kelayotgan pedagoglardan katta bilim va kuchli mahoratni talab qiladi. Pedagog o'z mahoratini namoyish qilishda o'z pedagogik qobiliyatlardan foydalanadi. Qobiliyatlar kasbiy faoliyatiga xos bo'lishi, bóljak o'qituvchilar o'zlarida kasbiy qobiliyatlarni rivojlantirishi lozim. Chunki dars o'tish jarayonida o'qituvchi o'tiladigan darsi uchun tayyor holda kelishi yoki umuman boshqa holatlarda ham vaziyatdan chiqishda uddaburonlikka ega bo'lishi herak. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy qobiliyatlarning bo'lishi, ularda dars o'tish samarasini yuksaltiradi. Masalan, pedagogik psixologik olimlar tomonidan tavsiya etilgan kasbiy qobiliyat turlari mavjud. Yirik psixolog S. I. Rubinshteyn ta'kidlab o'tganidek, pedagogik jarayon o'qituvchi tarbiyachining faoliyati tariqasida rivojlanuvchi bola shaxsini shakllantiradi, bu esa pedagogning o'quvchi faoliyatiga naqadar rahbarlik qilishiga yoki aksincha, unga extiyoj sezmasligiga bog'liq. Bola shaxsini rivojlanishida o'qituvchining roli benixoya muhimdir, chunki u ta'lim va tarbiya jarayonining tashkilotchisi vazifasini bajaradi. Xozirgi sharoitda o'qituvchining tashkilotchilik qobiliyatiga nisbatan yuksak talab qo'yiladi. Tadqiqotchi A. L. Shcherbakov fikriga kòra, pedagogik faoliyat bu o'qituvchi oldiga jiddiy talablar qo'yadigan murakkab psixologik faktdir. U o'qituvchi shaxsi 6ta kasbiy tarkibiy qismdan iborat ekanligini ta'kidlaydi:

1) yuksak saviyadagi bilim va madaniyat; 2) yo'nalishning aniq ifodalanganligi; 3) yuksak axloqiy hislatning mavjudligi; 4) yuqori darajada yuzaga keluvchi faollik va barqaror mustaqillik; 5) qat'iy va silliq xarakter; 6) pedagogik qobiliyatlar: Bu kasbiy qismlardan ham ko'rinib turibdiki, pedagog har tomonlama mukammal bo'lishi kerak. Ya'ni yuqorida aytib o'tilganidek bilimsiz o'qituvchi bo'lmasligi lozim, har qanday vaziyatda o'qituvchi óz bilimiga, madaniyatiga tayanishi bundan tashqari pedagog o'z oldiga puxta o'ylangan rejalashtirilgan aniq bir maqsadni qo'yishi va u tomon o'z harakatini yo'naltirishi kerak. Va, albatta, o'qituvchi shaxsi uchun muhim bo'lgan xislatlardan biri uning muomala madaniyati va xarakteri hisoblanadi. Bóljak o'qituvchi ta'lim sohasida o'z kasbiy mahoratini namoyish qila boshlagan kundan har bir o'quvchisi uchun xarakter xususiyatini, muomala madaniyatini o'z o'rniga qo'yib borishi kerak. Chunki o'quvchi psixologiyasini hisobga olgan holda ularning yosh xususiyatlarini inobatga olishi, ularning ota-onalari bilan tanishib chiqishi, ular orasida muomala madaniyatini yo'lga qo'yib olishi kerak. Yana bir muhim kasbiy qismlaridan biri bu albatta, pedagogik qobiliyatlarga

ega bo'lishi ekan. Pedagog olim I.P. Podlasiy pedagogik qobiliyatning tuzilishini quyidagi tarzda aniqlashtirgan: 1) tashkilotchilik – talim oluvchilarni jipslashtirish, ularning faoliyatini rejalashtirish, jamoaviy ishga jalb etish, yakunlarini chiqarish; 2) pertseptiv- talim oluvchilarning ichki olamiga ta'sir ko'rsatish, ularning emotsional holatini xolis baholash. 3) diagnostik- O'quv materialini tanlay olish o'quv materialini tushunarli, aniq, obrazli, ishonchli bayon eta olish, o'quvchilarning bilishga qiziqishlari va intellektini rivojlantirishni rag'batlash, o'quv- biluv faolligini oshirish hamda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va ijodkorlikka qobiliyatlilik. 4) kommunikativ- ta'lim oluvchilar va jamoa bilan pedagogik maqsadga qaratilgan munosabatni o'rnatish o'rganish kōnikmasi. 5) suggestiv (suggestiya - ishontirish) o'quvchilarga emotsional ta'sir ko'rsatish. 6) tadqiqotchilikka doir pedagogik jarayon, vaziyatlarni anglash hamda obyektiv baholay olish qobiliyat 7) ilmiy - bilishga oid tanlangan ixtisoslikka doir belgilangan hajmdagi ilmiy bilimlarni egallay olish qobiliyati. 8) gnostik – obyekt, jarayonni va o'z faoliyati natijalari asosida uni korrektsiyalay olish tatqiq etish hamda olingan natijalar asosida uni korrektsiyalash qobiliyati olimlar tomonidan tavsiya etilgan ushbu qobiliyatlar pedagog faoliyatida tōgri shakllanishi ularni ta'lim berish jarayonida o'z ustida ishlashini talab etadi Ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati o'qituvchi kadrlarning kasb-mahorati va savodxonligiga bevosita bog'liq. Haqiqatdan ham barcha rivojlangan jamiyatda bo'lgani kabi, o'qituvchining kasbiy mahorati ta'lim muassasasida ta'lim jarayonida va ish faoliyatida shakllanadi. Shu nuqtai nazardan pedagogika oliy talim muassasalarida ta'lim olayotgan bo'lajak o'qituvchi talabalar o'z mahoratlarini ikki tomonlama amaliyotda hamda pedagogika Oliy talim muassasalarida olish jarayonida shakllantiradilar. Bo'lajak o'qituvchilarga, avvalo, kasb mahorati va uni qanday qilib shakllantirish mumkinligi to'g'risida ma'lumotlar berish maqsadga muvofiqdir. Har bir o'qituvchi o'quvchilar bilan ishlash jarayonida ularning psixologik xususiyatlarini, yosh davrlarini ham inobatga olishlari darkor. Misol tariqasida psixologik jihatdan kichik maktab yoshi davrini oladigan bo'lsak, bu davr boshlangich sinflarni o'z ichiga oladi. Maktabgacha yosh bilan bu davrni taqqoslaganda asosiy faoliyat turi o'qish hisoblanadi. Asosiy faoliyat turining almashinuvi bolaning psixologik rivojlanishiga ham ta'sir etadi. Ya'ni bola maktabdagi tizimiga ko'nikishi uchun biroz vaqt kerak bo'ladi. Chunki ular maktabgacha yosh davrida ko'proq o'yin faoliyatiga ko'nikkan bo'ladi. Bunday vaziyatda bo'lajak o'qituvchilar dars jarayonida interfaol metodlardan, turli xil o'yinlardan foydalanishi, faqat o'qish jarayoniga bolani solib qo'yish emas, balki o'qish davomida ular orasiga didaktik o'yinlar o'tkazish zarur. O'qituvchilardan talab qilinayotgan asosiy maqsad bu, albatta, ta'lim-tarbiya berishdir. Yaxshi ta'lim-tarbiya berish uchun esa bo'lajak pedagoglarda o'z faniga, kasbiga bo'lgan mahorat talab qilinadi. Pedagog o'z ta'limini samarali o'tishi uchun unga, avvalo bilim kerak va eng muhimi o'quvchilarda darsga bo'lgan qiziqishini oshirishdir. Jenevalik psixolog Jan Peajenning ma'lumotlariga ko'ra, 6-7 yoshli bolaning intellektual salohiyatida keskin burilishlar ro'y beradi. Uning xotirasi ancha yaxshi bo'lib, ma'lum tizimga, tartibga tushadi, endi u ko'proq o'zi xohlagan narsalarni esda saqlab qoladigan bo'lib qoladi. Haqiqatan ham, bu davrda bolalarning xotirasi juda yaxshi shakllangan bo'ladi, xattoki o'qituvchining har bir harakatini kuzatadi, o'rganadi va o'z o'qituvchisiga taqlid qilish jarayoni ham kuzatiladi. Shuning uchun ham pedagog o'z xatti -harakatlarini ifodalashi lozim. Uning muomala odobi, kiyinishi, pedagogik texnikasi qobiliyatlari, umuman barcha xislatlari o'quvchilar xotirasida saqlanib qoladi, unga nisbatan munosabat bildiradi boshlaydi. Shuning uchun bo'lajak pedagoglar avvalo, ta'lim tizimida bo'layotgan o'zgarishlardan xabardor bo'lishi, darsliklarning yangilangan tartibini o'rganib, o'zgarishlarning kundan kunga rivojlanishini tahlil qilishi lozim.. Bu yosh o'quvchilarning bilimini, ularning mantiqiy tafakkurini oshirish uchun qaratilgan. Bunga javoban albatta, pedagoglardan kuchli bilim va ta'lim tizimi uchun kasbiy mahorat talab etilmoqda. Bo'lajak pedagoglar, albatta, mahoratga egali mukammal darajada bo'lishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qipchaqova Yo., & Soxibova F. (2022). МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNI LISMONIY TARBIYALASH MUAMMOLARI. Мировая наука, (3 (60)), 18-21.
2. Qipchaqova, Y. H. (2022). МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNI TARBIYALASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. Research Focus, 1(2), 340-347.
3. Qipchaqova, Y. (2022). МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNI TARBIYALASH SOHASIDAGI XORIJ МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ TASHKILOTLARI TAJRIBALARI. Science and innovation, 1(B8), 106-111
4. Kipchakova, Y. (2021). METHODOLOGICAL AND DIDACTIC ASPECTS OF INFORMATION AND INTELLECTUAL CULTURE IN THE EDUCATION OF A DEVELOPED GENERATION. Экономика и социум, (6-1), 156-159.
5. Kipchakova, Y. X., & Kodirova, G. A. (2020). INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN MODERN EDUCATION. Теория и практика современной науки, (5), 29-31.
6. KIPCHAKOVA, Y., ABDUXAMIDOVA, M., & RAXMONALIYEVA, (2021)M. THE IMPACT OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN IMPROVING STUDENT KNOWLEDGE. СТУДЕНЧЕСКИЙ ВЕСТНИК Учредители: Общество с ограниченной ответственностью "Интернаука", 37-38.
7. Қипчақова, Ё., Махмудова, М., & Умарова, З. (2021). МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАР МЕХНАТИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТИ. Студенческий вестник, (22-7), 9-10.
8. Қипчақова, Ё., Соибжоновна, Ш., & Абдуқаюмова, С. (2021). МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ ЖАРАЁНИДА СОҒЛОМ ТУРМУШ ТАРЗИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ АҲАМИЯТИ. Студенческий вестник, (22-7), 11-12
9. Kipchakova Yorkinoy, (2023) PERSONAL DEVELOPMENT OF A FUTURE TEACHER AS AN INTEGRAL PART OF PROFESSIONAL TRAINING Web of Scientist: International Scientific Research Journal (WoS) April 2023. (181-187)
10. Yorqinoy Qipchaqova , Kasimova Muxlisa Hamdamovna (2023/4/14) PEDAGOGIK MAHORAT VA UNING O’QITUVCHI FAOLIYATIDA TUTGAN O’RNI IQRO.jurnali (477-484)
11. Y.H. Qipchaqova (2023/4/14) Bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy faolligini rivojlantish. IQRO jurnali (485-493)
12. Y. Qipchaqova U.Xalilova, I. Mirzaolimova (2022/1/20) Bo’lajak o’qituvchilarning integrativ faoliyatning loyihali komponenti “Ilm-zakovatimiz – senga, ona-Vatan!” mavzusidagi Respublika onlayn ilmiy-amaliy anjumani materillari 3-tom (116-b)
13. Qipchaqova Yorqinoy. (2023). BOSHLANG’ICH TA’LIMDA CHET TILLARINI O’QITISHGA O’ZARO TA’SIR ETISH OMILLARI. Ta’lim Innovatsiyasi Va Integratsiyasi, 11(10), 3–5.
14. Kipchakova Yorkinoy (2023). ISSUES OF INTERACTION WITH LANGUAGE TEACHING IN PRIMARY EDUCATION. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 10(12), 780–782
15. Hamidjonovna, Y. Q. (2023). SHAXS RIVOJLANISH JARAYONI, TARBIYASI VA UNING IJTIMOYILASHUVI. Научный Фокус, 1(2), 475-480.
16. Kipchakova Yorkinoy. (2023). SOME PROBLEMS OF PREPARING PRIMARY CLASS TEACHERS FOR INNOVATIVE ACTIVITY. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 10(12), 777–779. Retrieved from <https://www.eijmr.org/index.php/eijmr/article/view/841>
17. Kipchakova, Y. (2021). Methodological And Didactic Aspects Of Information And Intellectual Culture In The Education Of A Developed Generation. Экономика и социум, (6-1), 156-159.

18. Qipchaqova Yorqinoy Hamidjanovna Kasimova Muxlisa Xamdamovna. (2023). FACTORS TO IMPROVE THE PEDAGOGICAL SKILLS AND PROFESSIONAL CULTURE OF THE EDUCATOR. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 10(10), 35–38. Retrieved from <https://www.eijmr.org/index.php/eijmr/article/view/320>

19. QIPCHOQOVA Yorqinoy, MADRAHIMOVA Mohiraxon Imomaliyevna (2023) MAKTABGACHA TA'LIMDA STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH ZARURIYATI «Педагогик ва психологик тадқиқотлар» (6-11)

20. Yo.H.Qipchaqova (2022) Maktabgacha yoshdagi bolalarni zamonaviy yondashuv asosida tarbiyalash. Xorazm Ma'mun Akademiyasi 11/3 2022.(143-145)

21. Qipchaqova Yorqinoy (2023-yil 10-noyabr) BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TIL O'QITISHGA O'ZARO TA'SIR ETISH MASALALARI "TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLAR" RESPUBLIKA-ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI (25-28)

22. Qipchaqova Yorqinoy (2023-yil 10-noyabr) BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARNI INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASHNING AYRIM MUAMMOLARI "TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLAR" RESPUBLIKA-ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI (42 -44)

23. Qipchaqova Yorqinoy Hamidjanovna, Ergasheva Maftuna Davlatjon qizi. (2023). ISSUES OF TEACHER SKILLS IN THE DEVELOPMENT OF PEDAGOGICAL IDEAS. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 10(09), (129–133). Retrieved from <https://www.eijmr.org/index.php/eijmr/article/view/185>

24. Y.H. Kipchakova. (2023). PREPARATION FOR PROFESSIONAL ACTIVITY BY DEVELOPING INNOVATIVE ACTIVITY OF FUTURE TEACHERS. International Journal of Advanced Research in Education, Technology and Management, 2(3), 243–262. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7745915>